

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 27 yanvardagi «O`zbekiston Respublikasida qizilmiya va boshqa dorivor o`simliklarni etishtirish hamda sanoat usulida qayta ishlashni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 63-sonli qa

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 27 yanvardagi «O`zbekiston Respublikasida qizilmiya va boshqa dorivor o`simliklarni etishtirish hamda sanoat usulida qayta ishlashni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 63-sonli qarori ijrosini ta`minlash maqsadida Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 27 yanvardagi «O`zbekiston Respublikasida qizilmiya va boshqa dorivor o`simliklarni etishtirish hamda sanoat usulida qayta ishlashni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida»gi 63-sonli qarori ijro uchun rahbarlikka olinsin.
- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

a) O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, O`rmon xo`jaligi davlat qo`mitasi, Ekologiyava atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo`mitasi hamda Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankining Qizilmiya va boshqa dorivor o`simliklarni etishtirish va qayta ishlash tashkilotlari uyushmasini (keyingi o`rinlarda Uyushma deb ataladi) tashkil etish to`g`risidagi taklifga rozilik berilganligi;

b) Quyidagilar:

qizilmiya va boshqa dorivor o`simliklarni etishtirish va qayta ishlashni kompleks rivojlantirish dasturlarini amalga oshirishni muvofiqlashtirish, ushbu sohada yagona ilmiy-texnikaviy, texnologik, investitsiya va eksport siyosatini yuritishga ko`maklashish;

tabiiy maydonlardan oqilona foydalangan va intensiv etishtirish texnologiyalarini qo`llagan holda qizilmiya va boshqa dorivor o`simliklar o`sishi uchun qulay hududlarda maxsus plantatsiyalar tashkil etish yo`li bilan ularni etishtirish hajmlarini bosqichma-bosqich oshirib borish;

qizilmiya xomashyosidan samarali foydalanish, uni sanoat asosida chuqur qayta ishlash va yuqori qo`shilgan qiymatga ega bo`lgan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni ta`minlash;

qizilmiya va boshqa dorivor o`simliklarni etishtirish va qayta ishlash sohasini rivojlantirishga doir me`yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

qizilmiya va boshqa dorivor o`simliklarni etishtirish va qayta ishlashga mo`ljallangan mavjud quvvatlarni oshirish va yangilarni tashkil etish jarayonlariga xorijiy sarmoyalarni, chet elik mutaxassislar hamda konsul`tantlarni faol jalb etish, ushbu sohada ilg`or texnologiyalarni joriy qilish;

mazkur soha uchun mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash, oliy va o`rta maxsus, kasb-hunar ta`limi muassasalarida, shuningdek, xorijda ularning malakasini oshirish ishlarini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirishda ishtirok etish uyushmaning asosiy vazifalari etib belgilanganligi;

v) Boshqaruv xodimlarining cheklangan umumiy soni 15 nafardan iborat bo`lgan Uyushmaning ijro etuvchi apparati tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq ma`qullanganligi;

g) O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekiston Respublikasida qizilmiya o`simligini etishtirish hamda sanoat usulida qayta ishlashni ko`paytirish chora-tadbirlari to`g`risida» 2017 yil 16 maydagi PQ-2970-son qarori bilan tashkil etilgan qizilmiya o`simligi sanoat plantatsiyalarini yaratish va qizilmiya xomashyosini chuqur qayta ishlashni ta`minlash masalalari bo`yicha ishchi guruhgaikki oy muddatda:

Uyushma ustavining tasdiqlanishini va belgilangan tartibda davlat ro`yxatidan o`tkazilishini;

Uyushmaning yuqori malakali kadrlar bilan to`ldirilishini ta`minlash topshirilganligi;

d) O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligiga Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan birgalikda Uyushmaning Nukus shahri, A.Utepov ko`chasi, 31-uy manzilidagi Nukus maishiy xizmat ko`rsatish va iqtisodiyot kasb-hunar kolleji binosiga bepul foydalanish huquqi bilan joylashtirilishini ta`minlash topshirilganligi;

e) Quyidagilar:

qizilmiya va boshqa dorivor o`simliklarni etishtirish va qayta ishlash bilan shug`ullanadigan tashkilotlar Uyushma a`zolari tarkibiga kirishi mumkinligi;

Uyushma raisi va uning o`rinbosari muassislarning umumiy yig`ilishi qarori bilan saylanishi va O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan lavozimga tasdiqlanishi;

Uyushmaning ijro etuvchi apparatini saqlash xarajatlarini moliyalashtirish Uyushma a`zolarining badal to`lovlari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag`lar hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo`yilganligi;

yo) 2018-2023 yillar davrida qizilmiya plantatsiyalarini bosqichma-bosqich tashkil etish, uni uzluksiz ko`paytirishni ta`minlash maqsadida 2018 yilda Qoraqalpog`iston Respublikasida qizilmiyao`simligi yangi plantatsiyalarini tashkil etish va xomashyosini tayyorlash hajmlari prognoz ko`rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

j) O`zbekiston Respublikasi O`rmon xo`jaligi davlat qo`mitasi, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo`mitasi, Sog`liqni saqlash vazirligi, Fanlar akademiyasi, Qishloq va suv xo`jaligivazirligi, Iqtisodiyot vazirligiga Qizilmiya etishtirishni ko`paytirish, chuqur qayta ishlash va dori vositalari hamda substantsiyalar ishlab chiqarish bo`yicha chora-tadbirlar dasturini ikki hafta muddatda ishlab chiqish hamda O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun kiritish topshirilganligi;

z) Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va tumanlar hokimliklariga bir oy muddatda;

O`zbekiston Respublikasi er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo`mitasi, Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot instituti, xorijiy mutaxassislar bilan birgalikda, tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda, qizilmiya va boshqa dorivor o`simliklar etishtirish uchun qulay bo`lgan, umumiy maydoni 25 ming gektargachani tashkil qiladigin er uchastkalari;

qizilmiya plantatsiyalari tashkil etish loyihalari tashabbuskorlari takliflari tanlab olinishini ta`minlash topshirilganligi;

i) O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligiga manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda Qizilmiya plantatsiyalarini tashkil etish loyihalari tashabbuskorlari takliflarini tanlab olish tartibi to`g`risidagi nizomni ikki oy muddatda ishlab chiqish va belgilangan tartibda tasdiqlash topshirilganligi;

k) «O`zagrotexsanoatxolding» aksiyadorlik jamiyatiga O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi, Qoraqalpog`iston Respublikasi Vazirlar Kengashi bilan birgalikda;

2018 yil avgust oyigacha bo`lgan muddatda - qizilmiya o`simligi plantatsiyalarini tashkil etish va parvarish qilish, shuningdek, xalqaro talablarga muvofiq qizilmiya xomashyosini quritish va qadoqlash uchun zarur bo`ladigan maxsus texnika vositalari va minitexnologiyalarga bo`lgan ehtiyojni hamda ularning turlarini aniqlash;

talab etiladigan maxsus texnika vositalari va minitexnologiyalarni xarid qilish, shuningdek, imtiyozli shartlarda, lizing asosida olish bo`yicha barcha zarur tashkiliy-amaliy choralarini ko`rish topshirilganligi;

l) O`zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki va boshqa tijorat banklariga qizilmiya va boshqa dorivor o`simliklarni etishtirish bo`yicha sanoat plantatsiyalarini tashkil etuvchi tadbirkorlik sub`ektlariga O`zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalashtirish stavkasidan yuqori bo`lmagan stavkalarda, to`rt yillik imtiyozli davr bilan imtiyozli kredit mablag`lari ajratish tavsiya etilganligi;

m) O`zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo`jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo`jaligi korxonalarini tarkibiy qayta tuzish agentligi qizilmiya va boshqa dorivor o`simliklar plantatsiyalarini tashkil etish, ularni etishtirish va qayta ishlash loyihalarini moliyalashtirish uchun xalqaro moliya institutlari grantlari va kreditlarini jalb etish yuzasidan bir oy muddatda takliflarni ishlab chiqishi va O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritishi topshirilganligi;

n) Qizilmiya va boshqa dorivor o`simliklar plantatsiyalarini tashkil etuvchi, shuningdek, qizilmiya ildizini qayta ishlovchi va tayyor mahsulot chiqaruvchi xo`jalik yurituvchi sub`ektlarga 2024 yil 1 yanvargacha quyidagi imtiyozlar berilganligi:

-quyidagi to`lovlardan ozod etish:

er solig`i, daromad solig`i, yuridik shaxslar mulk solig`i, yagona soliq to`lovi, yagona er solig`i, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Ta`lim va tibbiyot muassasalarining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish jamg`armasiga majburiy ajratmalardan;

o`zlarining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun xorijdan keltiriladigan texnologik uskunalar, maxsus qishloq xo`jaligi texnikalari, ularning tarkibiy va ehtiyot qismlari, xomashyolar, materiallar, respublikada ishlab chiqarilmaydigan qurilish materiallari hamda qizilmiya va boshqa dorivor o`simliklar urug`lari va ko`chatlari uchun bojxona to`lovlaridan (bojxona yig`imlaridan tashqari);

-plantatsiyalar tashkil etish uchun zarur ko`chatlar (urug`, qalamchalar)ni tayyorlash (yig`ish) uchun ruxsatnoma olish uchun to`lovlarni kechiktirish;

o) «Lanextrakt» MChJ qo`shma korxonasi tomonidan ta`sis etiladigan xo`jalik yurituvchi sub`ektga xorijiy investorlar ishtirokida iste`mol spirti ishlab chiqarishga istisno tariqasida ruxsat etilganligi;

«Lanextrakt» MChJ qo`shma korxonasi ta`sis etadigan xo`jalik yurituvchi sub`ektga ishlab chiqarilgan oziq-ovqat spirti hajmining qizilmiya va dorivor o`simliklar ekstrakta ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan qismiga aksiz solig`i to`lash majburiyati bo`lmashligi belgilab qo`yilganligi;

O`zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligiga «Lanextrakt» MChJ qo`shma korxonasi tomonidan ta`sis etiladigan xo`jalik yurituvchi sub`ektga oziq-ovqat spirti ishlab chiqarish uchun xomashyo sotib olishga kvotalar ajratish topshirilganligi;

p) O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligi huzuridagi Farmatsevtika sohasini rivojlantirish agentligi, Qoraqalpog`iston

Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyat hokimliklariga bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga qizilmiya va boshqa dorivor o'simliklarni qayta ishlash va ulardan dorivor vositalar ishlab chiqarish bo'yicha farmatsevtika korxonalarini tashkil etish yuzasidan takliflar kiritish topshirilganligi;

r) O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligiga 2018-2019 o'quv yilidan boshlab Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filialida «Qizilmiya va boshqa dorivor o'simliklarni etishtirish va qayta ishlash texnologiyasi» mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlashni tashkil etish topshirilganligi;

s) O'zbekiston Respublikasi O'rmon xo'jaligi davlat qo'mitasiga O'zbekiston qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, Toshkent davlat agrar universiteti bilan birgalikda:

bir hafta muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasining o'ziga xos tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda, qizilmiya plantatsiyalari tashkil etish va qizilmiya hosilini yig'ish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

2018 yilning mart oyi mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasining har bir tumanida fermer, dehqon xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalari rahbar hamda mutaxassislari ishtirokida, zamonaviy ilm-fan yutuqlari va ilg'or agrotexnologiyalardan foydalangan holda, qizilmiya plantatsiyalarini tashkil etish, xizmat ko'rsatish va hosilini yig'ish bo'yicha amaliy o'quv-seminarlari o'tkazish topshirilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. O'rta maxsus kasb-hunar ta'limi boshqarmasi Nukus shahri hokimligi bilan birgalikda Qizilmiya va boshqa dorivor o'simliklarni etishtirish va qayta ishlash tashkilotlari uyushmasining Nukus shahri, A.Utepov ko'chasi, 31-uy manzilidagi Nukus maishiy xizmat ko'rsatish va iqtisodiyot kasb-hunar kolleji binosiga bepul foydalanish huquqi bilan joylashtirilishini ta'minlasin.

4. 2018-2023 yillar davrida qizilmiya plantatsiyalarini bosqichma-bosqich tashkil etish, uni uzluksiz ko'paytirishni ta'minlash maqsadida 2018 yilda Qoraqalpog'iston Respublikasida qizilmiya o'simligi yangi plantatsiyalarini tashkil etish va xomashyosini tayyorlash hajmlari prognoz ko'rsatkichlari ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tumanlar hokimliklari bir oy muddatda:

Qoraqalpog'iston Respublikasi er resurslari va davlat kadastr boshqarmasi xorijiy mutaxassislar bilan birgalikda, tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqqan holda, qizilmiya va boshqa dorivor o'simliklar etishtirish uchun qulay bo'lgan, umumiy maydoni 25 ming gektargachani tashkil qiladigan er uchastkalari;

qizilmiya plantatsiyalari tashkil etish loyihalari tashabbuskorlari takliflari tanlab olinishini ta'minlasinlar.

6. «O'zagrolizing» aksiyadorlik jamiyati Qoraqalpog'iston Respublikasi filiali va «Qoraqalpog' Agroservis MTP» mas'uliyati cheklangan jamiyati Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, tumanlar hokimliklari bilan birgalikda:

2018 yil avgust oyigacha bo'lgan muddatda - qizilmiya o'simligi plantatsiyalarini tashkil etish va parvarish qilish, shuningdek, xalqaro talablarga muvofiq qizilmiya xomashyosini quritish va qadoqlash uchun zarur bo'ladigan maxsus texnika vositalari va minitexnologiyalarga bo'lgan ehtiyojni hamda ularning turlarini aniqlash;

talab etiladigan maxsus texnika vositalari va minitexnologiyalarni xarid qilish, shuningdek, imtiyozli shartlarda, lizing asosida olish bo'yicha barcha zarur tashkiliy-amaliy choralarini ko'rsin.

7. Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filiali Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda 2018-2019 o'quv yilidan boshlab Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filialida «Qizilmiya va boshqa dorivor o'simliklarni etishtirish va qayta ishlash texnologiyasi» mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlashni tashkil etsinlar.

8. Qoraqalpog'iston Respublikasi O'rmon xo'jaligi qo'mitasi O'zbekiston qishloq xo'jaligi ilmiy-ishlab chiqarish markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'limi, Fanlar akademiyasi, Toshkent davlat agrar universiteti Nukus filiali bilan birgalikda:

bir hafta muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasining o'ziga xos tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda, qizilmiya plantatsiyalari tashkil etish va qizilmiya hosilini yig'ish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqsin;

2018 yilning mart oyi mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasining har bir tumanida fermer, dehqon xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalari rahbar hamda mutaxassislari ishtirokida, zamonaviy ilm-fan yutuqlari va ilg'or agrotexnologiyalardan foydalangan holda, qizilmiya plantatsiyalarini tashkil etish, xizmat ko'rsatish va hosilini yig'ish bo'yicha amaliy o'quv-seminarlari o'tkazsin.

9. Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga takliflar kiritsin.

10. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisining o'rinbosari S.Xojametov zimmasiga yuklatilsin.

Ko'rib chiqildi:

Izlash

- 
- 
- 

- [Vazirlar Kengashi](#)
- [Statistik va tahliliy ma'lumotlar](#)
- [Vazirliklar va idoralar](#)
- [Shahar va tuman hokimliklari](#)
- [Hujjatlar](#)
- [Respublika mehmonlariga](#)
- [Elektron hukumat](#)
- [Interaktiv davlat xizmatlar](#)